



ARAB TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'ZLASHGAN TERMINLAR XUSUSIDA

Ermatov Ixtiyor Rizakulovich

Guliston davlat universiteti

“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari
doktori (DSc)

Eshboyeva Fazilat

Guliston davlat universiteti

“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida o‘qituvchisi

Muratkulov Amonulla Tursunkulovich

Guliston davlat universiteti

“O‘zbek tilshunosligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15387218>

ARTICLE INFO

Received: 28th April 2025

Accepted: 30th April 2025

Published: 10th May 2025

KEYWORDS

harf, imlo, sarf, istiloh, lafz,
savt, nuqta, nutq.

ABSTRACT

Mazkur maqolada arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan tilshunoslikka oid ayrim terminlar va ularning hozirgi o‘zbek tilshunosligi terminologik tizimiga munosabati masalalarida fikr yuritiladi; arab o‘zlashmalarining o‘zbek tili tilshunoslik terminologiyasi tizimida tutgan o‘rniga baho beriladi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda bir qator ma’rifatparvarlarning tashabbusi bilan ona tili taraqqiyoti uchun kurash g‘oyasi keng yoyildi. Dunyo yangiliklaridan xabardor bo‘lish istagi aholini savodli bo‘lishga undadi. Bu esa, o‘z navbatida, darslik-saboqliklarni yaratishni taqozo qilar edi. Butun turk olamida yangicha o‘qitish, savod chiqarish uchun bo‘lgan kurashlarning natijasi o‘laroq, jurnalist va pedagog Hodi Maqsudiyning “Birinchi darslik” [1, 8] hamda M.Abdulqodirning “Qavoidi lisani turkiy” (“Turk tili qoidalari”) [2, 69] asarlari yaratildi. Ushbu darslik va qo‘llanmalarining mualliflari boshqa millat vakillari bo‘lgani uchun ularda o‘zbekcha terminlar yo‘q darajada edi. Aksincha, mualliflarning tillariga xos arabcha yo forscha terminlar ko‘p edi. Masalan, “Sarf-i tyurkiy” (“Turk tili grammatikasi”)da bir so‘zdan iborat *sarf* (grammatika), *mufrad* (birlik son), *mujarrid* (mavhum otlar) kabi; ikki so‘zdan iborat *ismi ishorat* (ko‘rsatish olmoshi), *ahvoli ism* (kelishik) singari arabcha tilshunoslik terminlari qo‘llangan.

“Sarf-i tyurkiy” muallifi 9 ta so‘z turkumi haqida to‘xtalar ekan, ularni ifodalovchi quyidagi arabcha tilshunoslik terminlarini keltiradi: *ism* (ot), *sifat* (sifat), *zamid* (olmosh), *ismi ishorat* (ko‘rsatish olmoshi), *myubxemat* (so‘roq olmoshi), *masdar* (harakat nomi), *fiil* (fe‘l), *fer-i fe‘l* (otning fe‘lga xoslangan shakli), *adavat* (ko‘makchi). Bugun *asliy* va *nisbiy sifatlar* deb ataladigan holatlarni *sifati asli* va *sifati qiyasiy* kabi arabcha izofali birikmalar bilan ataydi. Qrimtatar tilshunoslik terminlarining shakllanishida Bekir Cho‘ponzoda (1893–1937)ning xizmati katta. “Tyurk-tatar lisaniyatna medxal” [3, 241] (Turk-tatar tilshunosligiga kirish), “K‘ygyimtatar il‘miy sarfy” [4, 188] (“Qrimtatar tilining ilmiy grammatiksi”), “Tyurk grammeri”

[5, 202] (“Turk grammatikasi”) asarlarida arabcha terminlar o‘rnida turkcha yoki ruscha terminlardan foydalangan.

Bu asarlarda qo‘llangan terminlarni tilshunoslik bo‘limlari bo‘yicha quyidagicha ko‘rsatish mumkin:

1. Fonetika bo‘limiga oid terminlar: *savte* (unli tovush), *samite* (undosh tovush), *sedaly ses* (unli tovush), *dudak’ sesi* (lab tovushi), *damak’ sesi* (bo‘g‘iz tovushi), *dish sesi* (tish tovushi), *savtiy* (fonetika), *temsil* (assimilyatsiya) kabi.

2. Morfologiya bo‘limiga oid terminlar: *so‘z shekili* (so‘z shakli), *bash k’oshma* (prefiks), *so‘z tak’ymy* (so‘z tarkibi) singari.

3. Sintaktis bo‘limiga oid terminlar: *tam jumle* (qo‘shma gap), *nakis jumle* (sodda gap), *xaber* (kesim), *mufteda* (ega), *nahv* (gap qurilishi, sintaksis) kabi.

Bekir Cho‘ponzoda lisoniy hodisalarni atashda fors-tojikcha izofali qurilmalardan ham termin sifatida foydalangan, bu jarayonda arabcha va turkcha so‘zlar birikishidan hosil bo‘lgan gibrid terminlar yasalgan.

Arabcha tilshunoslik terminlarining Turkistonda 20-yillarda yaratilgan darsliklar orqali o‘zbek tiliga kirib kelishini til bo‘limlari bo‘yicha ko‘rib chiqamiz:

Morfologiyaga oid terminlar: *sarf* (grammatika), *salt* (o‘timsiz fe‘l, fe‘li lozim), *salt fe‘li* (o‘timsiz fe‘l), *maf’ul* (o‘timli fe‘l), *foil* (o‘timsiz fe‘l), *kuma* (to‘da, to‘plash), *adad* (son), *odot* (qo‘shimcha), *zamon* (zamon), *mufrad* (birlik son), *mujarrid* (mavhum ot), *zamid* (olmosh), *ismi ishorat* (ko‘rsatish olmoshi), *ahvoli ism* (kelishik), *ism* (ot), *sifat* (sifat), *masdar* (harakat nomi), *fiil* (fe‘l) kabilar.

Qayd etilgan arabcha terminlar 20–40-yillarda qo‘llangan bo‘lsa-da, ayrimlari mustaqillik davri darsliklarida qaytadan paydo bo‘ldi. Masalan, *maf’ul* – o‘timli fe‘l, *foil* – o‘timsiz fe‘l [6, 176] kabi.

Harakat ta‘siriga uchraydigan, harakat natijasida yaratiladigan narsa, shaxs, hodisani atab keluvchi so‘z tilshunoslikda *maf’ul* [6, 24] deb ataladi. O‘timli fe‘l anglatgan harakat *foildan maf’ulga* o‘tadi, unga ta‘sir ko‘rsatadi. O‘timsiz fe‘l anglatgan harakat *foilning o‘zida* qoladi: *Salimjon devorni oqladi. Yolg‘onchining yuzi oqardi* [6, 25]. Bunday terminlar mustaqillik davridagi ayrim darsliklarda qo‘llangan bo‘lsa-da, o‘zbek tilshunoslik terminologiyasiga singib ketmaganligi sababli hozirgi tilshunoslik terminologiyasidan joy ololmadi.

Leksikologiyaga oid terminlar: *lafz* (so‘z), *istiloh* (termin), *ibora*, *lug‘at*.

Gapning qurilish materiali bo‘lgan tushuncha arabcha *lafz* hamda *kalima* terminlari bilan ifodalangan. Fitrat mazkur tushunchani o‘zbekcha *so‘z* termini bilan ifodalagan [9, 38].

Fonetikaga oid terminlar: *savt* (tovush), *savtiy* (fonetika), *nutq*.

O‘zbek tilshunosligiga *savt* [2, 69] termini o‘rniga o‘zbekcha *tovush* [8, 7] termini 20-yillarda kirib kelgan bo‘lsa, 40-yillarda *tovush* bilan *fonema* termini birgalikda sinonim sifatida qo‘llana boshlandi. Bu termin hozirgi ona tili darsliklaridagi *unli tovush*, *undosh tovush* kabi terminlarning yuzaga kelishida asos bo‘lgan.

Orfografiyaga oid harf – *harf*, *imlo* – *imlo* terminlari kirib kelishini o‘zbek yozuvining isloh qilinishi bilan bog‘lash mumkin. *Harf* [10, 24] termini, ayrim manbalarda ko‘rsatilishicha, *qo‘shimcha* terminining sinonimi bo‘lgan. Bu termin zamirida *bosh harf*, *kichik harf* kabi terminlar yuzaga keldi. O‘tgan asrning 20–30-yillarida “Imlo qoidalari” joriy etilishi munosabati bilan Ashurali Zohiriy o‘zbek tilshunosligiga *bosh harf* bilan yozish qoidalarini

olib kirdi [7, 351]. Arabcha *harf* termini dastlab o'zbek tilida *surat* deyilgan va arab alifbosidagi harflarning yozuvda hosil qiladigan shakli nazarda tutilgan.

So'z yasalishiga oid terminlar: *modai asli* (o'zak), *negiz* (asos), *ishtiqoq* (so'z yasash). O'zbek tilida *so'z yasash* termini dastlab Fitrat asarlarida uchraydi. U buni quyidagicha izohlaydi. "Tillarning boyimoqlarini, kengaymaklarini qulaylashtirgan "so'z yasash" yo'li (arabcha aytikanda *ishtiqoq*)dir" [8, 39].

Punktuatsiyaga oid termin: *nuqta*. Garchi arab tilshunoslik terminologiyasida punktuatsiyaga oid terminlar qo'llanmasa-da, *nuqta* termini arab tilidan kirib kelgan. Arab tilida bir xil shakldagi harflarni bir-biridan ajratish yoki farqlash uchun nuqtadan foydalanilgan. Arab yozuviga asoslangan eski o'zbek yozuvida ham tinish belgilari ishlatilmagan. O'tgan asrning 25–30-yillarida yaratilgan "Sarf" va "Nahv" darsliklari lotin grafikasiga asoslangan o'zbek yozuvida yozilgan. Shuning uchun Fitrat *nuqtani* [9, 7] eng ko'p qo'llanadigan tinish belgilaridan biri deb, uni *to'xtash belgisi* tarzida nomlaydi. Bu termin o'z taraqqiyot yo'lida bir qancha terminlarning yuzaga kelishida asos bo'ldi. Masalan, hozirgi ona tili darsliklarida faol qo'llanayotgan *nuqtali vergul*, *ikki nuqta*, *ko'p nuqta* kabi.

Tilshunoslik terminologiyasi shakllanmagan bir paytda *tilshunoslik* arabcha *lisoniyat* termini bilan atalgan bo'lib, bu termin o'zbek tiliga qrimtatar tilshunosligidan o'zlashgan.

XX asr boshlaridagi ilk darslik-qo'llanmalarda arabcha terminlar asosiy o'rinni egallagan. Bizningcha, bu holat darslik mualliflarining, asosan, arab tili grammatikalarini o'qib, olim sifatida shakllanganligi, o'z darsliklarini yaratishda arab tili grammatikalaridan foydalanganligi bilan bog'liqdir. Masalan: *savt*, *savtiya* (tovush), *istiloh* (termin), *sarf* (morfologiya), *nahv* (gap qurilishi, sintaksis), *lisoniyat* (tilshunoslik), *zamid* (olmosh), *masdar* (harakat nomi) kabilar arabcha terminlardir.

Sof o'zbekcha so'zlar termin sifatida qo'llanishga xoslanmaganligi uchun o'zbekcha termin yasash qiyin kechgani ma'lum. Mualliflar ba'zi lug'aviy birliklarni sof turkiycha terminlar bilan almashtirish imkoni bo'lmaganda arabcha terminlardan foydalaniib qo'ya qolganlar. Umuman, arabcha terminlar o'zbek tilshunosligi uchun mutlaqo yangi hodisa emas edi, chunki arabcha terminlar eski maktablarda o'rgatilgan va keyingi davr darsliklarida ham saqlangan. Ularning tilimizda barqarorlashganligi hozirgi davr darsliklarida ham kuzatiladi. Masalan: *ism*, *fe'l*, *sifat*, *hol*, *harf*.

O'tgan asrning 20–30-yillar o'zbek tilshunoslik terminologiyasidagi ko'plab arabcha terminlar asta-sekin o'zbekcha terminlar bilan almashtirilgan. Bu davrda yangi darsliklar yaratilishi, ilmiy izlanishlar olib borilishi natijasida bir komponenti arabcha, bir komponenti o'zbekcha terminlar yoki har ikki qismi o'zbekcha qo'shma va birikma terminlar ham yasalgan. Masalan: *mantiqiy urg'u* (*mantiqiy* – arabcha, *urg'u* – o'zbekcha), *sadali sas* (*sadali* – arabcha, *sas* – turkcha), *unli tovush* terminlari dastlabki turk sarf-nahvlarida qo'llangan; *o'tgan zamon*, *hozirgi zamon*, *kelasi zamon*, *asliy sifat*, *qiyosiy sifat*, *bosh harf* singari terminlar ham o'zbekcha-arabcha qo'shma terminlardir. Ular hozirgi kunda ham termin sifatida qo'llanayotgan bo'lsa, *ismi adad*, *zamid* kabi arabcha terminlar 20-yillarning o'rtalarida *son*, *olmosh* terminlari bilan almashtirilgan.

Arab tili grammatikalari orqali kirib kelgan *sarf va nahv* terminlari ham o'tgan asrning 30–40-yillarida *grammatika* termini bilan almashtirilganki, endi bu holat rus tili grammatikalarining ta'siridir.

Demak, o'zi anglatgan lisoniy tushunchaning mohiyatiga muvofiq tushganligi, o'zbek tili terminosistemasidan muqim joy olganligi sababli hozirgi davr darsliklarida *ibora*, *imlo*, *inkor*, *lug'at*, *me'yor*, *nutq*, *nuqta*, *sifat*, *fe'l*, *zamon* kabi arabcha terminlar faol qo'llanmoqda. Ammo

ko'plab arabcha terminlarning o'zbekcha muqobillari topilgani uchun qo'llanishdan chiqdi, ayrimlari esa o'zi ifodalaydigan lisoniy tushuncha bilan birga iste'molan chiqib, tilning arxaik fondiga o'tib ketdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'G, R. Z. S. I., Tursunkulovich, M. A., & Qizi, E. F. B. (2024). TA'LIMDA RASMIY ISH QOG 'OZLARINING AHAMIYATI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 22-25.
2. Fazilat, E., Lutfinisa, D., & Sirojiddin, M. (2024). OZBEK SAHNA ASARLARI TILINING AYRIM JIHATLARI SHARHI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 16-21.
3. Muratkulov, A. (2024). O 'ZBEK TILIDA ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING QO 'LLANILISHI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 174-176.
4. Ermatov, I., Eshboyeva, F., & Mamatqulov, A. (2025). TO'RA SULAYMONNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI. *Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования*, 4(7), 101-105.
5. Akbarovich, A. A., Ixtiyor, E., & O'G, R. Z. S. I. (2024). TIL VA FAOLIYAT VA ULARNING O 'ZARO BOG 'LIQLIGI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 4-7.
6. Berdialiyev, A., & Ermatov, I. (2021). Hozirgi o'zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). *T.: "TURONIQBOL" nashriyoti*, 204.
7. Berdialiev, A., & Ermatov, I. (2021). Modern Uzbek literary language.
8. Rizaqulovich, E. I., Murtozayevich, M. S., & Qizi, N. O. A. (2024). OTNING XUSUSIY LUG 'AVIY SHAKLLARI HAQIDA. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(3), 26-29.
9. Ikhtiyar, E. (2022). HYPERO-HYPONYMIC RELATIONS IN THE TERMINOLOGICAL SYSTEM OF MORPHEMES AND WORD FORMATION LEVELS OF UZBEKI. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 133-136.
10. Эрматов, И. Р. (2022). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ "МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН" АСАРИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ ҲАҚИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 983-990.
11. Эрматов, И. Р. (2022). АЛИШЕР НАВОЙНИНГ "МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН" АСАРИДА СЎЗ ЯСАЛИШИ ҲАҚИДА. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 983-990.
12. Эрматов, И. Р., & Турдикулова, К. (2022). ГАП БУЛАКЛАРИ. МАКОМИНИНГ БЕЛГИЛАНИШМЕЗОНЛАРИ ХАҚИДА. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(1), 190-193.
13. Эрматов, И. (2022). ТЕРМИНОЛОГИЯ ТИЗИМИДА ГИПОНИМИЯ ВА ЭКВОНИМИЯ ҲОДИСАЛАРИНИНГ КЕСИШУВИ. *Academic research in educational sciences*, 3(4), 173-178.
14. Ermatov, I. (2022). Hozirgi o'zbek adabiy tili (Morfemika, so'z yasalishi, morfonologiya). *Scienceweb academic papers collection*.
15. Мураткулов, А. Т. (2023). ОРГАНИЗОВАТЬ УРОКИ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS* (Vol. 2, No. 7).
16. Мураткулов, А. Т., & Мураткулова, М. А. (2023). ОБРАЗ ЛУКМАН ХАКИМА В «КИСАС УЛЬ-АНБИЯ». In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON" MODERN EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS* (Vol. 2, No. 7).
17. Muratkulov, A. (2024). O 'ZBEK TILIDA ARABCHA KO 'PLIK SHAKLLARINING QO 'LLANILISHI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 174-176.

18. Tursunkulovna, S. I., Lutfiniso, D., & Omonullo, M. (2020). Imitation of Thoughts and Feelings–Artistic Means of Psychology. *Solid State Technology*, 63(4), 453-457.
19. Khamrokulovna, T. Z. (2021). ISSUES RELATED TO SOSIOLINGVISTIK ANALYSIS (ABOUT Qul-, -qul-COMPONENT NAMES). In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES* (Vol. 1, pp. 48-50).
20. Tuychieva, Z. K. (2018). LITERATURE REVEALING THE TRUTH OF LIFE. *Проблемы педагогики*, (7), 77-78.

